ANDIJON VILOYATI SHAROITIDA YETISHTIRILGAN BUG'DOY O'SIMLIGINING TURLI HIL NAVLARIDA BOSHOQ VA DON KO'RSATKICHLARI

Umarova Gulnoza Abdurashidovna
Andijon davlat universiteti

Qabul qilindi: 08.10.2025
Ko'rib chiqildi: 09.10.2025
Tasdiqlandi: 10.10.2025

Hozirda aholi turmush darajasini yahshilash eng avvalo kelajak avlodning hamda jamiyat a'zolarini to'yimli, sifatli uglevodlarga va oqsilga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shunday o'simliklardan biri boshoqli ekinlar oilasiga mansub bug'doy o'simligidir. Hozirgi kunda respublikamizda tezpishar va serhosil bug'doy navlarini yetishtirish agritexnologiyasini ilmiy-tadqiqot ishlari o'rganilib, fermer va dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish bugungi kun talablaridan biridir[1].

Dunyo bo'yicha bug'doy yetishtirish yiliga 760 million tonnani tashkil etadi, 2030-yilga kelib bu ko'rsatkich 850 million tonnaga oshirish kutilmoqda. Odamlar uchun asosiy o'simlik oqsili manbayi bug'doy doni bo'lib, u kundalik oziq-ovqat ratsionida oqsilga bo'lgan ehtiyojning 50 % ini qondiradi. Bug'doy doni sifatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri uning tarkibidagi oqsil va kleykovinadir. Sifatli non tayyorlashda xamir cho'ziluvchanligini belgilovchi biokimyoviy birikma kleykovina hisoblanadi[2].

K.X. Buxorov, M.T. Xonkeldiyeva larning olib borgan tadqiqotlarida kuzgi bug'doyni sifati hamda hosildorligiga mineral va aminokislotalarning mikroelementli kompleks o'g'itlarini ta'siri kuzatilgan. Tajriba uchun tanlangan bug'doyzor dalasi besh guruhga bo'lib o'rganilgan bo'lib, birinchi guruh

bug‘doyzor nazorat fon qilib olinib, o‘g’itlarsiz parvarish qilindi. Ikkinchi guruh bug‘doyzorga NPK mineral o‘g‘iti ta’sir ettirilgan, uchinchi guruh bug‘doyzorga mikroelement + NPK o‘g‘iti bilan, to‘rtinchi guruh bug‘doyzorga aminokislota + NPK o‘g‘iti bilan, beshinchi guruh bug‘doyzorga esa mikroelement+aminokislota + NPK tarkibli kompleks o‘g‘it bilan ishlov berilgan. Tadqiqot natijasida bug‘doyga NPK mineral o‘g‘it, NPK + mikroelementli o‘g‘it, NPK + aminokislotali o‘g‘it, NPK + aminokislota + mikroelementli kompleks o‘g‘it bilan ishlov berilganda yuqori hosildorlikka erishilganligi hamda don sifat ko‘rsatkichlariga, 1000 don o g’irligiga ijobiy ta’sir etganligi o‘rganilgan[3].

Tajriba Andijon viloyati sharoitida **C**IMMYT seleksiyasiga oid 20th HTWYT yuqori haroratga chidamli 17 hil navlardan hamda Mars navida olib borildi. Navlarni katalokda keltirilgan raqamlari orqali nomlab olindi. Bunda $1m^2$ maydondagi har bir tupda yetilgan boshoqlar soni, don vazni va 1000 don og’irligi aniqlandi.

Olib borilgan natijalarga ko‘ra №-2 navida boshoqlar soni 86 ta, don vazni 143,94 gr ni tashkil qildi, №-3 navida boshoqlar soni 140 ta, don vazni 235,47gr ni, №-5 navda boshoqlar soni 174 tani, don vazni esa 232,89 gr ni, №-6 navida boshoqlar soni 131 tani, don vazni 184,91 gr ni, №-7 navda boshoqlar soni 199 ta, don vazni 288,83 gr ekanligi, №-8 navda umumiy boshoqlar soni 187 ta, don vazni 190,03 gr ni, №-9 navda boshoqlar soni 192 ta, donning og’irligi 415,55 gr, №-10 navda boshoqlar soni 228 ta, don vazni esa 321,56 gr ni, №-12 navda boshoqlar soni 176 ta, don og’irligi 190,06 gr ni, №-13 navda boshoqlar soni 146 ta, don vazni 201,99 gr ni, №- 14 navda boshoqlar soni 196 ta, don vazni 228,01 gr, №-15 navda boshoqlar 203 tani, don og’irligi 329,17 gr ni, №-16 navda boshoqlar soni 202 ta, don vazni esa 241,86 gr, №-17 navdagi boshoqlar soni 201 ta, don vazni 241,09gr, №-18 navda boshoqlar soni 169 ta, don og’irligi 242,61gr ni, №-19 navda boshoqlar soni 251, don vazni 299,35 gr, №-20 navda boshoqlar

199 tani, don og'irligi 278,14 grni tashkil qildi hamda Mars navida ushbu ko'rsatkichlar 103 ta, don vazni 195,51 gr ga ega ekanligi aniqlandi.

1000 don vazni bo'yicha ushbu navlarda eng yuqori ko'rsatkich №-10 navda 49,2 gr, №-13 navda 49,52 gr hamda №-9 navda 50 gr ni tashkil qildi.

Xulosa o'rnida 1000 don og'irligi bo'yicha hosildorligi yuqori bo'lgan navlarda boshoqlar soni va don vazni ham yahshi ko'rsatkichlarga ega ekanligi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Х. Ч. БЎРИЕВ, С. И. ДЎСМУРАТОВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ЭКИНЛАРИ УРУШҒУНОСЛИГИ Тошкент — "Мехнат" — 2000 3-5 б
2. https://www.samdu.uz/uz/news/31148
3. K.X. Buxorov va boshqalar KUZGI BUG'DOYNING HOSILDORLIGI VA DON SIFATIGA KOMPLEKS O'G'ITLARNING TA'SIRI, O'zbekiston zamini 2/2022yil, 58-61 bet.